



## EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN REGULATING CRYPTOCURRENCES

**Shadiyeva S.A.**

Associate Professor of the Department of Civil and Private Law at the University of World Economy and Diplomacy, Candidate of Law

e-mail: s.shadiyeva@uwed.uz

**Khudoyorova Nilufar**

e-mail: nilufarkhudayarova@gmail.com

Student of the University of World Economy and Diplomacy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14324919>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> December 2024

Accepted: 08<sup>th</sup> December 2024

Online: 09<sup>th</sup> December 2024

### KEYWORDS

*Cryptocurrency, digital asset, legislation, investment, currency, legal regulation.*

### ABSTRACT

*Countries or individual regions around the world have different attitudes and approaches to cryptocurrencies. Since digital currencies are almost a new field, their unified legal status has not been established, and there are no conflict norms or conventions. The article examines current issues of legal regulation of cryptocurrencies. It examines and analyzes the approaches of different countries to defining the legal nature of cryptocurrencies. The article is a comprehensive study of the legal status of cryptocurrencies and is intended for specialists in the field of law and finance, as well as a wide audience interested in new technologies.*

## KRIPTOVALYUTALARNI TARTIBGA SOLISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

**Shadiyeva S.A.**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Fuqarolik hamda xususiy huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar nomzodi. e-mail: s.shadiyeva@uwed.uz

**Xudoyorova Nilufar**

e-mail: nilufarkhudayarova@gmail.com. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14324919>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> December 2024

Accepted: 08<sup>th</sup> December 2024

Online: 09<sup>th</sup> December 2024

### ABSTRACT

*Dunyo bo'yicha mamlakatlarning yoki alohida mintaqalarning kriptovalyutalarga bo'lgan munosabati va yondashuvi turli xil hisoblanadi. Raqamli valyutalar deyarli yangi soha bo'lganligi sababli ularning yagona huquqiy maqomi belgilanmagan, kollizion normalar yoki konvensiyalar ham mavjud emas. Maqolada kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solishning dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan. Unda kriptovalyutalarning huquqiy tabiatini aniqlash bo'yicha turli mamlakatlarning yondashuvlari o'rganilgan va tahlil qilingan. Maqola kriptovalyutalarning huquqiy*



## KEYWORDS

*Kriptovalyuta, raqamli aktiv, qonunchilik, investitsiya, valyuta, huquqiy tartibga solish.*

*maqomini kompleks tadqiq etishdan iborat bo'lib, huquq va moliya sohasidagi mutaxassislar, shuningdek, yangi texnologiyalarga qiziquvchi keng auditoriyaga mo'ljallangan.*

## Kirish

Kriptovalyutalar paydo bo'lganidan buyon butun dunyo bo'yicha axborot texnologiyalari va moliya bozorini shiddat bilan egallab olmoqda. Ularning markazlashmaganligi va anonimligi kabi o'ziga xos tabiati bilan moliyaviy tizimdagi inqilobiy o'zgarishlarga bo'lgan salohiyati tufayli millionlab odamlarni jalb qilmoqda. Biroq, kriptovalyutalar tezkor erishilgan ommabopligi davlatlar va huquqiy tizimlar oldiga ularning huquqiy maqomini belgilash bo'yicha murakkab masalalarni o'rtaga qo'ydi. Kriptovalyutalarni tartibga solishda yagona xalqaro yondashuvning yo'qligi huquqiy noaniqlikka sabab bo'lib, ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Dastlab, dunyo hamjamiyatida kriptovalyutalarning birinchi turlarining paydo bo'lishi salbiy tepki ko'rsatdi, chunki bu bilan hukumatlar o'zlarining asosiy afzalliklari – pul emissiyasidan mahrum bo'lishi mumkin edi. Shu sababli, kriptovalyutalar paydo bo'lishining dastlabki bosqichida ularga nisbatan salbiy munosabat mavjud edi, buning natijasida aksariyat davlatlar ularni shunchaki taqiqlab, kriptovalyutadagi hisob-kitoblar uchun javobgarlikni joriy qila boshladilar. Biroq, kriptovalyuta emissiyasi nazorat qilinmayotgani ma'lum bo'lgach, davlatlar ularning aylanmasi va soliqqa tortishni tartibga solishga harakat qila boshlashdi. Hozirgi kunda, xorijiy qonun chiqaruvchilar kriptovalyuta iqtisodiyotda yangi istiqbolli yo'nalishga aylanmoqda, degan xulosaga kelishmoqda. Biroq, shuni tan olish kerakki, dunyo hamjamiyati, shuningdek, ilmiy izlanuvchilar jamiyatida ham yangi turdagi pulga nisbatan yagona pozitsiya yo'q: ba'zilar kriptovalyuta tizimini moliyaviy piramida deb hisoblasa, boshqalari uni alohida turdagi tovarlarga tenglashtiradilar. Ural davlar iqtisodiyoti iniversiteti professori M.S. Maramigin dunyo bo'ylab kriptovalyutalarni tartibga solish darajasiga qarab uchta guruhga ajratadi: kriptovalyutalar aylanmasini qabul qiluvchi davlatlar (Germaniya, Yaponiya, Shveysariya, Belgiya); o'tish bosqichida bo'lgan davlatlar (Xitoy, Bolgariya, Norvegiya, AQSH, Kipr, Shvetsiya, Rossiya); kriptovalyutalar aylanishini taqiqlovchi davlatlar (Tailand, Bangladesh, Vyetnam, Ispaniya)<sup>1</sup>. Bundan kelib chiqib, dunyo mamlakatlari qonunchiligida uch xil yondashuv mavjudligini, ya'ni kriptovalyutalarni to'liq tan olishini, ularning aylanmasini cheklashini yoki umuman taqiqlashini aytish mumkin. Bundan tashqari, I.M. Sereda kriptovalyutalarning huquqiy maqomini to'rttaga bo'ladi: pul vositasiga/valyutaga, to'lov yoki ayirboshlash vositasiga, tovarga yoki boshqa mol-mulkka va pul surrogatiga<sup>2</sup>.

## ***Osiyo mamlakatlari qonunchiligida kriptovalyutalarning o'rni.***

**Yaponiya** – 2017-yilga qadar huquqiy baza mavjud emas edi. Shu yili Mt. Gox birjasining qulashi kriptovalyutalarni tartibga solishning hal qiluvchi zarbasi bo'ldi. 2017-yilda Yaponiya “To'lov xizmatlari to'g'risida”gi (PSA – Payment Services Act) Qonunni qabul qilib, nafaqat

<sup>1</sup> Maramigin M.S., *Виды и особенности майнинга современных денежных суррогатов-криптовалют*, KANT №4(25), 2017, 218-b.

<sup>2</sup> Sereda I.M., *Особенности правового регулирования криптовалюты: зарубежный ответ*, Вестник Сибирского юридического института МВД России, №3(40), 2020, 94-b.



kriptoalyutalarni tan oldi, balki ularni muomalaga kiritish uchun asosiy qoidalarni ham belgiladi. Ushbu qonunga binoan kriptoalyutalar jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida fiat valyutalar kabi to'lov vositasi sifatida erkin ayirboshlash mumkin deb belgilanadi. Shuningdek, mamlakatning Jinoiy faoliyatdan olingan pullarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi (AML – Anti-Money Laundering) va Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi (CFT – Combating the Financing of Terrorism) qonunlari ham kriptoalyutalar aylanmasini nazorat qilib, PSAni to'ldiradi. Ushbu qonunlar ijrosini nazorat qilishda Yaponiya moliyaviy xizmatlar agentligi (FSA – Financial Services Agency) asosiy rol o'ynaydi. FSA kriptoalyuta birjalarini litsenziyalashni, qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish va investorlarni himoya qilish choralarini ko'rish uchun javobgardir.

**Xitoy.** 2013-yilda xitoylik investorlarning kriptoalyutalarga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshgani tufayli Bitcionning narxi 89 martaga oshdi. Shu sababli Xitoy Xalq banki Bitcoin bilan bog'liq operatsiyalar harakatini, ularning huquqiy maqomi bo'lmagan degan bahona bilan taqiqlab qo'ydi. Biroq bu internet-tranzaksiyalarda Bitcoindan foydalanuvchi jismoniy shaxslarga tatbiq etilmadi. 2017-yilda esa Xitoy Xalq banki milliy kompaniyalari uchun ICO (Initial Coin Offering) operatsiyalarini taqiqladi. Bu yangilikni kriptoalyuta bozori salbiy kayfiyatda qarshiladi, chunki Coindesk xabariga ko'ra, ushbu taqiq kriptoalyutalar birjasida Bitcoinning 5%ga, Ethereumning esa 15%ga tushib ketgani kuzatilgan. Hozirda Xitoy qonunchiligi kriptoalyutalar aylanmasini tartibga solmaydi, ammo uni raqamli tovar sifatida tan oladi.

**Singapur** – raqamli texnologiyalar sohasida yetakchi o'rinni egallaydi. Mamlakatda kriptoalyutalar davlat darajasida tan olingan rasmiy to'lov vositasi hisoblanadi. Buni esa mamlakat moliya bozorida kriptoalyutalarning faol rivojlanish yo'lidagi birinchi qadam deb atash mumkin. Kriptoalyutalar aylanmasini nazorat qiluvchi organ Singapurda markaziy bank vazifasini bajaruvchi Pul-kredit boshqarmasi hisoblanadi. Singapurda kriptoalyutalarni tartibga solish haqida gapirganda, soliqlarni ham ta'kidlab o'tish zarur. Singapurda kriptoalyuta to'lov vositasi bo'lishiga qaramay, u tovar ham hisoblanadi. Shu sababli, kriptoalyuta yordamida amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar uchun qo'shimcha qiymat solig'i belgilangan. Soliq stavkasi operatsiya summasining 7%ini tashkil etadi. Shuningdek, agar kompaniyaning kriptoalyuta aylanmasi 12 oy ichida bir million Singapur dollaridan ohsa, u soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi<sup>3</sup>.

### ***Yevropada kriptoalyular aylanmasini tartibga solish.***

Yevropa Ittifoqi kriptoalyutalarni tartibga solishni uyg'unlashtirishni ta'minlashi kerak bo'lgan "Raqamli aktivlar to'g'risida"gi yagona huquqiy hujjatini (MiCA) ishlab chiqishni yo'lga qo'ygan. MiCA (Markets in Crypto-Assets) – bu Yevropa Ittifoqining reglamenti bo'lib, u butun Yevropa Ittifoqi hududida kripto-aktivlar bozori uchun yagona qoidalarni yaratishga qaratilgan. Ushbu hujjat kriptoalyutalarning ommalashuvi tufayli yanada shaffoflikni ta'minlash, investorlarni himoya qilish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

<sup>3</sup> Riyabchikov D.V., Основные аспекты регулирования криптовалюты в Сингапуре, Образование и право №6, 2023, 242-b.



**Germaniya** – kriptovalyutaga ijobiy e'tibor qaratgan Yevropadagi ilk mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ularni tartibga solish ishlari 2013-yil Moliya Vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror bilan boshlangan. Bitcoinning o'zi savdo aloqalarida "hisob birligi" (unit of account) sifatida belgilangan. Biroq, qonunchilikda kriptovalyulalarning o'zi xorijiy yoki raqamli valyuta deb tan olinmagan, ular "xususiy pul" (private money) degan maqom olgan. Bu qaror soliq qonunchiligiga ham bir qancha o'zgartirish kiritishga undadi. Unga ko'ra, agar kriptovalyutani olib sotish o'rtadida 12 oydan kam vaqt o'tgan bo'lsa, bunda daromad solig'iga tortiladi.

**Buyuk Britaniya** – kriptovalyuta integratsiyasi bo'yicha yetakchi yurisdiksiyalardan biri hisoblanadi. Mamlakat kriptovalyuta biznesini yuritish uchun eng qulay sharoit yaratadi va ular bilan bog'liq startaplarga davlat darajasida yordam ko'rsatadi. Kriptovalyuta aylanmasini tartibga solish 2014-yildan boshlangan. Buyuk Britaniyaning Moliyaviy faoliyatni boshqarish organi kriptovalyutaning na pul va na valyuta emasligini ta'kidlaydi, shuningdek, Buyuk Britaniyaning moliyaviy qonunchiligi bilan tartibga solinishi mumkin emasligini ko'rsatadi. 2016-yilda Angliyaning Moliyaviy faoliyatni boshqarish va nazorat qilish organida birinchi kriptovalyuta kompaniyasi ro'yxatga olingan. Ushbu kompaniya bilan foyda olish maqsadida Angliyaning Barclays banki hamkorlik qilishni boshladi. Biroq, bunda G'aznachilik jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) sohasidagi qonunchilikni valyuta ayirboshlash bilan shug'ullanuvchi birjalar va boshqa kriptovalyuta kompaniyalariga nisbatan qo'llashni taklif qildi. Shu bilan birga, kriptovalyuta hamyonlarini foydalanuvchilarga taqdim etadigan, ya'ni kriptovalyutalarni saqlash va kriptovalyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot yoki platforma taqdim etadigan kompaniyalarga nisbatan bunday qonunchilik qo'llanilmasligi kerakligini ta'kidlab o'tgan<sup>4</sup>.

### ***Amerika Qo'shma Shtatlarida kriptovalyutalar.***

Kriptovalyuta biznesini yuritish uchun dunyodagi eng qulay mamlakat hozirda AQSh hisoblanadi. Birinchi marta kriptovalyutadan foydalanish Kaliforniya shtatida qonunchilik darajasida rasmiylashtirilgan. Bu shtat Kaliforniyadagi har qanday korporatsiya, assotsiatsiya yoki jismoniy shaxsga AQShning qonuniy to'lov vositasidan tashqari pul muomalasi bilan shug'ullanishiga ruxsat beruvchi qonun qabul qildi, biroq davlat kriptovalyuta biznesini bevosita tartibga solmaydi. Ushbu turdagi biznes Nyu-York shtatida BitLicense – kriptovalyuta biznesini yuritish uchun litsenziya joriy etilganidan keyin rasman tartibga solingan. Vashington shtatida raqamli valyuta pul operatsiyalarining obyekti hisoblanadi, faqat shtat litsenziyaga ega kompaniyalar uchun kriptovalyular o'tkazmalariga imkoniyat yaratib beradi.

### ***O'zbekistonda kriptovalyutalarni tartibga solish.***

O'zbekistonda kriptovalyutalar mayningi litsenziyalangan holda tartibga solingan va ularning aylanmasi qonunchilikda taqiqlanmagan, ammo ular mahsulot ayirboshlash uchun valyuta sifatida ham tan olinmagan. O'zbekistonda kripto-aktivlar aylanmasini tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 03.07.2018 yildagi PQ-3832-sonli Prezident Qarori qabul qilingan bo'lib, u kripto-

<sup>4</sup> Долгиева М. М., *Зарубежный опыт правового регулирования отношений в сфере оборота криптовалюты*, Зарубежное право, №10 (143), 2018, 118-б.



aktivlarni huquqiy tartibga solinishida muhim ahamiyat kasb etgan. Unda ilk bor kriptο-aktivning ta'rifι, kriptο-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyat turlari, mayning tushunchasi, kriptο-birja, mayning-pul, kriptο-depozitariy, kriptο-do'kon va boshqalarning huquqiy maqomi belgilangan.

Mazkur qarorning III bandiga muvofiq, kriptο-aktiv mulkiy huquq deb hisoblanib, ma'lumotlarning taqsimlangan reestridagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan qiymati va egasiga ega, kriptο-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyat turlariga esa mayning va kriptο-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlar faoliyati kiritilgan.

Shuningdek, kriptο-aktivlarni tartibga solinishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2018 yildagi PQ-3926-sonli "O'zbekiston Respublikasida kriptο-birjalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ham katta ahamiyatga ega. Unda kriptο-aktivlar aylanmasi maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi, kriptο-aktivlar aylanmasi bilan bog'liq operatsiya; ar soliq solinadigan obyekt hisoblanmasligi, mazkur operatsiyalar yuzasidan olingan daromadlar esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga kiritilmasligi, mazkur operatsiyalarga valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari taqbiq etilmasligi, kriptο-aktivlarni sotib olish, sotish yoki ayirboshlash uchun elektron platformani taqdim etuvchi tashkilot kriptο-birja deb hisoblanishi kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi qoidalar o'rnatilgan.

Bundan tashqari, bugungi kriptο-aktivlarni huquqiy asoslariga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 28-noyabrda 3397 raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining "O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kriptο-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish va muomalaga kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 15-avgustda 3379 raqam bilan raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining "Kriptο-birjada kriptο-aktivlar savdolarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyruqlari ham kiradi. Mazkur hujjatlarda kriptο-aktivlarni chiqarish, muomalaga kiritish, kriptο-aktivlarning electron reestrini yuritish, kriptο-aktivlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish, kriptο-aktiv egalarining huquqlari, kriptο-aktivlar savdolarini tashkil etish, kriptο-birjada hisob-kitob-kliring operatsiyalarni o'tkazish tartibi va boshqa masalalar tartibga solingan.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, qayd etilgan normative hujjatlar kriptο-aktivlarni huquqiy provayderini yaratishdagi ilk qadamlar hisoblanib, bugungi kunga qadar mazkur sohani tartibga soladigan yagona qonun qabul qilinmagan. Kriptο-aktivlar bilan bog'liq masalalarning turli xil normativ hujjatlarda tartibga solinishi mazkur munosabatlarning ishtirokchilari uchun noqulaylik tug'diradi va barcha qonunda mavjud bo'lgan bo'shliqlarni tizimli ravishda to'ldirishga xizmat qilmaydi. Shu sababli, ayni paytda kriptο-aktivni huquqiy maqomini belgilovchi, ularni aylanmasini, chiqarilishini, realizatsiya qilinishini va boshqa masalalarni tartibga soluvchi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## **Xulosa**

Kriptοvalyutalarning huquqiy maqomi zamonaviy qonunchilikdagi eng munozarali mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Blokcheyn texnologiyalarining jadal rivojlanishiga va



raqamli aktivlarning tobora ommalashib borayotganiga qaramay, ko'plab mamlakatlarning qonunchilik tizimlari kriptovalyutalarni aniq bir huquqiy maqom bilan ta'minlashga hali ulgurmagani. Turli davlatlarning kriptovalyutalarni tartibga solishga yondashuvlarining xilma-xilligi, ushbu sohaning murakkabligi va ko'p qirraliligini tartibga solishni anchagina qiyinlashtiradi. Kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish sohasidagi asosiy muammolar ularning yuqori volatilligi, tranzaksiyalarning anonimligi, firibgarlik va pul yuvish xavfi bilan bog'liq. Shuning uchun ham ularni tartibga solish O'zbekistonning globallashtirish jarayonidagi dolzarb masalalardan biridir. Hozirda dunyo bo'yicha kriptovalyutalarning to'rt xil ko'rinishdagi huquqiy maqomi belgilangan: valyuta, tovar, to'lov vositasi va pul surrogati. Kriptovalyutalar – bu global valyutadir. Ularni valyuta sifatida tan olish anchagina qulayliklarni yaratadi. Foydalanuvchilarning anonimligi masalasiga kelsak, ularning shaxsini yagona identifikatsiyadan o'tkazish orqali ham belgilash mumkin. Bu pullarni yuvishga qarshi kurashishda bir usul bo'lib xizmat qiladi. Yaqin kelajakda O'zbekistonda kriptovalyutalar sohasini rivojlantirish va uning huquqiy maqomini belgilashda xalqaro tajribalar yetarlidir.

### References:

1. Maramigin M.S., *Виды и особенности майнинга современных денежных суррогатов-криптовалют*, KANT №4(25), 2017, 215-219 b.
2. Sereda I.M., *Особенности правового регулирования криптовалюты: зарубежный ответ*, Вестник Сибирского юридического института МВД России, №3(40), 2020, 94-98 b.
3. [O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3832.](#)
4. Riyabchikov D.V., *Основные аспекты регулирования криптовалюты в Сингапуре*, Образование и право №6, 2023, 242-245 b.
5. Долгиева М. М., *Зарубежный опыт правового регулирования отношений в сфере оборота криптовалюты*, Зарубежное право, №10 (143), 2018, 116-129 b.